Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 2/1
LINGUISTICS
MAXSUS SON

Akmal Tursunov – PhD, dotsent

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti (Navoiy, O‘zbekiston)
E-mail: tursunov.akmal.2701@gmail.com
ORCID: 0009-0000-6131-6883

TIL SIYOSATI VA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK: NAZARIYA VA AMALIYOT UYG‘UNLIGI

Annotatsiya: Mazkur maqolada til siyosati va zamonaviy tilshunoslik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning nazariy asoslari hamda amaliyotdagi uyg‘unlashuv jarayonlari tahlil qilinadi. Xususan, globallashuv sharoitida davlat til siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, til me’yorlarini belgilash, ko‘p tillilikni tartibga solish, hamda ijtimoiy-lisoniy jarayonlarning boshqarilish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikning sotsiolingvistika, pragmalingvistika, korpus lingvistikasi kabi yo‘nalishlari asosida til siyosatini shakllantirish va takomillashtirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy tilshunoslik, davlat tili, tilshunoslik, xalqaro, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, kognitiv tilshunoslik, raqamli texnologiyalar.

Akmal Tursunov – PhD, associate professor
Navoi State Mining and Technical University (Navoi, Uzbekistan)

LANGUAGE POLICY AND MODERN LINGUISTICS: COMPATIBILITY OF THEORY AND PRACTICE

Annotation. This article analyzes the relationship between language policy and modern linguistics, its theoretical foundations, and the processes of convergence in practice. Specifically, it provides scientific and theoretical insights into the priority areas of state language policy in the context of globalization, the establishment of language standards, the regulation of polyglotism, and mechanisms for guiding sociolinguistic processes. The possibilities of forming and improving language policy on the basis of such areas of modern linguistics as sociolinguistics, pragmatic linguistics and corpus linguistics are also substantiated.

Keywords: modern linguistics, state language, linguistics, international,
political and legal, socio-economic, cognitive linguistics, digital technologies.

Акмаль Турсунов – PhD, доцент
Навоийский государственный горно-технический университет (Навоий, Узбекистан)

ЯЗЫКОВАЯ ПОЛИТИКА И СОВРЕМЕННАЯ ЛИНГВИСТИКА: ГАРМОНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь языковой политики и современной лингвистики, их теоретические основы и процессы конвергенции на практике. В частности, научно и теоретически освещены приоритетные направления государственной языковой политики в контексте глобализации, установление языковых стандартов, регулирование многоязычия и механизмы управления социолингвистическими процессами.

Также обосновываются возможности формирования и совершенствования языковой политики на основе таких областей современной лингвистики, как социолингвистика, прагма лингвистика и корпусная лингвистика.

Ключевые слова: современная лингвистика, государственный язык, лингвистика, международный, политико-правовой, социально-экономический, когнитивная лингвистика, цифровые технологии.

KIRISH

Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir.

O‘zbekistonda 1989-yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi.

Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma’noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi (Mirziyoyev, 2019).

Bugun O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyo tilshunosligida yangi ilmiy paradigmalarningshakllanishi kuzatildi. Klassik strukturalizm va generativ grammatikadan tashqari, kognitiv, pragmatik, sotsiolingvistik, psixolingvistik va kompyuter lingvistikasi kabi zamonaviyyondashuvlar vujudga keldi. Bu esa tilshunoslikning faqat til tizimini emas, balki uningfunksional, madaniy, gender, psixologik va texnologik jihatlarini hamchuqur tahlil qilishimkonini berdi. Bunday fanlararo yondashuv tilni yanada kengroq kontekstda o‘rganishgasharoit yaratdi (O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni, 1989/1995).

Zamonaviy tilshunoslikning o‘ziga xos jihati – bu tildagi hodisalarni o‘rganishda antropotsentrik yondashuvning ustuvorligi, ya’ni tilning inson bilan bog‘liqligini markazgaqo‘yishdir. Inson tafakkuri, idroki, hissiyoti va ijtimoiy tajribasi til orqali namoyonbo‘ladi vatilshunoslik bu jihatlarni ilmiy asosda o‘rganishga intiladi. Shuningdek, til bilanbog‘liqmasalalarni madaniyatlararo kontekstda, global va mahalliy ijtimoiy jarayonlar bilanuzviyaloqada ko‘rib chiqish tendensiyasi kuchaymoqda

Bugungi kunda tilshunoslik nafaqat nazariy ilm-fan sifatida, balki amaliy soha sifatidahamjadal rivojlanmoqda. Tarjima nazariyasi, til o‘qitish metodikasi, sun’iy shakllanmoqda. Bu esa tilshunoslikni boshqa ijtimoiy va texnik fanlar bilanintegratsiyalashuviga zamin yaratmoqda.

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda shakllanayotgan eng muhim-yo‘nalishlar, ularning asosiy tamoyillari, tadqiqot ob’ektlari va metodologik yondashuvlari tahlil qilinadihamda bu yo‘nalishlarning bugungi ilmiy jarayonlardagi o‘rni yoritiladi. Kognitiv tilshunoslik - bu til va inson tafakkuri o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadigantilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishi. U til orqali insonning dunyoni qanday idroketishi, bilimlarni qanday shakllantirishi va ongda qanday kodlashtirishini tahlil qiladi (Yusupova, 2023)

Kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalari: 1. Kontsept (tushuncha) - inson ongida shakllangan bilim va tajriba birliklari, til orqaliifodalanadi. 2. Freym (ramka) - ma’lum bir kontseptual vaziyatni yoki bilim to‘plamini tashkil etuvchistrukturaviy birlik. 3. Skript - ma’lum bir vaziyat yoki voqea ketma-ketligini anglatuvchi kontseptual sxema. 4. Kognitiv metafora - abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida ifodalashusuli. 5. Kategoriyalashtirish - inson tafakkurida ma’lumotlarni guruhlash va tasniflashjarayoni.

Sh. Safarov o‘zbek tilshunosligida kognitiv lingvistika sohasida yetakchi olimlardanbiri bo‘lib, uning ilmiy ishlari kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslari, vazifalari varivojlanish yo‘nalishlariga bag‘ishlangan. Safarovning fikricha, kognitiv tilshunosliktilni insontafakkuri va idrok jarayonlari bilan bevosita bog‘laydi (Safarov, 2006)

Kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslari sun’iy intellekt sohasida tabiiy tilni tushunish vaqayta ishlash tizimlarini yaratishda qo‘llaniladi. Masalan, Google Translate, ChatGPT kabi tizimlar til va tafakkur munosabatlarini hisobga olib ishlab chiqilgan. Genderlingvistika - zamonaviy tilshunoslikning nisbatan yangi va dinamik rivojlanayotganyo‘nalishlaridan biri bo‘lib, til va jins o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni o‘rganadi.

NATIJALAR

Zamonaviy tilshunoslik fanining bugungi taraqqiyot bosqichida yuzaga kelayotganturliyo‘nalishlar tilning inson hayotidagi o‘rni va funksiyalarini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qilmoqda. Kognitiv tilshunoslik inson tafakkuri va til munosabatlarini tahlil qilsa, gender tilshunosligi til va ijtimoiy jins o‘rtasidagi murakkab aloqalarni ochibberadi.

Neyrolingvistika esa tilning biologik asoslarini, miyada nutq ishlab chiqarish va idrokqilishjarayonlarini o‘rganadi. Korpus lingvistika esa tilshunoslikka empirik va statistiktahlilimkoniyatlarini olib kirdi. Tilshunoslik fanining bu kabi diversifikatsiyalashuvi uning interdiscipliner fanlararo tus olishiga va boshqa fanlar bilan integratsiyalashuviga olib kelmoqda. Natijada til nafaqat muloqot vositasi, balki inson tafakkuri, madaniyati, jamiyati, texnologik imkoniyatlari vapsixologik holati bilan bevosita bog‘liq kompleks tizim sifatida talqin qilinmoqda. Maqolada ko‘rib chiqilgan yo‘nalishlar tilshunoslikning nazariy va amaliy salohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda va bu fanning kelajakda yanada yangi tadqiot yo‘nalishlari bilan boyib borishini anglatadi (Begmatov, 2006).

MUHOKAMA

O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e’tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda. Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir.

Zamonaviy tilshunoslik siyosati tildan siyosiy maqsadlarda foydalanish (manipulyatsiya, mafkura) va davlat til siyosatini (rejalashtirish, standartlashtirish) tahlil qiluvchi nazariy va amaliy sohadir. Nazariy asoslariga lingvokognitiv tahlil, diskurs tahlili va sotsiolingvistika kirsa, amaliy asoslari matnlar orqali mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish, til qonunchiligi va korpus tilshunosligi orqali tilni boshqarishni qamrab oladi (Nurmonov, 2022).

Tilshunoslik inson tafakkuri, jamiyat va madaniyat bilan bevosita bog‘liqbo‘lganmurakkab ijtimoiy hodisani o‘rganadigan fan sohasidir. Til insoniyat jamiyatiningajralmaselementi bo‘lib, nafaqat fikr almashish, balki tafakkur, o‘zlikni anglash va ijtimoiyhayotnitashkil etishda ham asosiy vosita hisoblanadi. Ana shu jihatdan tilshunoslik fani hamisharivojlanish va takomillashish jarayonida bo‘lib kelgan.

XULOSA

Zamonaviy tilshunoslik siyosati jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi va milliy o‘zlikni shakllantirish jarayonlarida strategik ahamiyat kasb etuvchi kompleks ijtimoiy-ilmiy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. U tilning faqat lingvistik tizim sifatidagina emas, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy fenomen sifatidagi mohiyatini ham qamrab oladi. Shu jihatdan, zamonaviy til siyosati nazariy jihatdan sotsiolingvistika, pragmalingvistika, etnolingvistika va diskurs tahlili kabi yo‘nalishlarga tayanadi.

Amaliyotda esa til siyosati davlatning huquqiy-meyoriy hujjatlari, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va raqamli kommunikatsiya muhiti orqali ro‘yobga chiqadi. Bugungi globallashuv sharoitida til siyosati milliy tilni muhofaza qilish, uning nufuzini oshirish, shu bilan birga ko‘p tillilikni ta’minlash vazifalarini o‘zaro mutanosiblikda hal etishni talab etadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt sharoitida tilning funksional imkoniyatlarini kengaytirish, uning korpusini boyitish va xalqaro maydonda raqobatbardoshligini ta’minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Shuningdek, til siyo-

sati ijtimoiy barqarorlik va millatlararo hamjihatlikni ta’minlashning muhim omili sifatida qaraladi. Samarali til siyosati jamiyatda tillararo muvozanatni saqlaydi, madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlaydi va shaxsning til huquqlarini himoya qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslik siyosati nazariy va amaliy jihatlarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan holda, milliy taraqqiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ilmiy asoslangan, tizimli va innovatsion yondashuvlarga tayanilgan holda amalga oshirilishi til barqarorligi, madaniy merosni asrash va global maydonda munosib ishtirokni ta’minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. (2019). *“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon*.
2. O‘zbekiston Respublikasi. (1995). *“Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun* (1989-yilda qabul qilingan, yangi tahrir).
3. Safarov, Sh. (2006). *Kognitiv tilshunoslik* (pp. 71–76). Jizzax: Sangzor.
4. Begmatov, E. (2006). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili masalalari* (pp. 3–8). Toshkent.
5. Nurmonov, A. (2022). *Tilshunoslik nazariyasi* (pp. 7–23). Toshkent.
6. Yusupova, G. (2023). Tilshunoslikda gender tadqiqining nazariy asoslari. *O‘zbekistonda xorijiy tillar*, 2(49), 18–37.